

## BIZNESNI BOSHLASH UCHUN QO'LLANMA O'ZINI O'ZI BAND QILGAN SHAXS

O'zini o'zi band qilgan shaxs - mustaqil ravishda daromad keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxs



✔ 103 ta faoliyat turi (Asos: PQ-4742-sonli qaror)

Repetitorlik qilish;  
Maishiy texnika ta'mirlash;  
Milliy non va patir tayyorlash va sotish;  
Tikuvchilik;  
Sartaroshlik va kosmetologiya;  
Uy tozalash;  
Bog'bonlik;  
Enagalik;  
Buyurtma asosida tovarlarni yetkazib berish;  
Yo'lovchi tashish (taxi) xizmati va boshqalar.

✔ Uy sharoitida ham tadbirkorlik yuritish imkoniyati

✔ Mobil ilova orqali ro'yhatdan o'tish imkoniyati

✔ Ro'yhatdan o'tish - bepul

✔ 100 mln so'mgacha daromad qilganda soliq to'lamaydi

### RO'YHATDAN O'TISH JARAYONI



#### ONLAYN

Soliq mobil ilovasi yoki my.gov.uz portalida Elektron raqamli imzo (ERI) orqali



#### OFFLAYN

Davlat xizmatlari markazlarida Pasport (ID-karta) orqali



#### GUVOHNOMA

O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida QR-kodli Guvohnoma (to'lov talab etilmaydi)

### MEHNAT STAJI HISOBLASH UCHUN IJTIMOY SOLIQ

Yiliga BHM 1 barabari miqdorida

## DAROMAD SOLIG'I

(tanlov asosida quyidagi soliq shakllaridan biri tanlanadi)

**O'zi band qilgan shaxslar 1 yilda 100 (yuz) million so'mgacha daromad ko'rsa daromad solig'idan ozod etiladi**

**Daromad 1 yilda 100 (yuz) million so'mdan oshgan taqdirda yakka tartibdagi tadbirkorlar kabi quyidagi tartibda soliq to'laydi:**

#### 1. DEKLARATSIYA ASOSIDA

Jami **yillik daromad** to'g'risidagi deklaratsiya asosida - **12%**

#### 2. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ STAVKASI (AOS)

**Yillik 100 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha aylanma uchun - 4%\***

\*- elektron savdo maydonchasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) chakana sotish bo'yicha faoliyat - 3%  
- aholisi 100 mingdan kam aholi punktlarida - 2%  
- borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda - 1%

2026 yil 1 yanvargacha AOS solig'ini **qat'iy** belgilangan summada to'lashni tanlash mumkin:

- 1 yilda **500 mln so'mgacha** aylanma uchun - **yillik 30 mln so'm qat'iy**;

- 1 yilda **1 mlrd so'mgacha** aylanma uchun - **yillik 40 mln so'm qat'iy**.

#### 3. QO'SHIMCHA QIYMAT (QQS) VA FOYDA SOLIG'I

**Yillik 1 mlrd so'mdan yuqori aylanma uchun - QQS 12 % va Foyda solig'i 15%\***

\*- bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda - 20%  
- tovar (xizmatlar) elektron savdosini amalga oshiruvchilar - 10%

#### CHEKLOVLAR

O'zini o'zi band qilgan shaxslar xodim yollash huquqiga ega emas